«Tasdiqlayman»
"O'zmilliybank" AJ Xorazm
viloyati Bosh boshqarmasi
"Xazarasp" BXM boshqaruvchisi:
_____U.Nazarov

"O'zmilliybank"AJ Xorazm viloyati Bosh boshqarmasida Xazarasp BXM da o'tkazilgan davra suhbat yig'ilish

B A Y O N N O M A S I №

Hazorasp tumani "27" mart 2026-yil

Raislik qildi: "O'zmilliybank" AJ Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi "Xazarasp" BXM boshqaruvchisi U.Nazarov.

Qatnashdilar: "O'zmilliybank" AJ Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi U.Davlanov hamda "O'zmilliybank" AJ Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi "Xazarasp" BXM xodimlari qatnashdilar. (___)ta

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

- **O'zbekistan Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy qilish maqsad va vazifalari;**
- **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025-yil 26-dekabr kunidagi Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlarini xodimlarga tushuntirish;**

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan "O'zmilliybank" AJ Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi Xazarasp BXM boshqaruvchisi U.Nazarov yig'ilishni ochib berib, olib bordi.

O'zbekistonning yangi siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini yuqori darajaga kutarish, zamonaviy samarali davlat borqaruvini joriy etish, davlat xizmatida korrupsiyaviy holatlarning har qanday kurinishlariga qat'iy murosasizlik madaniyatini shakllantirishda yuksak g'oyalarga tayanmoqda.
Avvalo, ushbu isloxotlarning tub zamirida Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyiliga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlari yo'lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

Shu urinda isloxotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davla. va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta'minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida ijobiy yutuklarga erishgan rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi shuni kursatmoqdaki, korrupsiya kurinishlarining oqibati bilan emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratilgan va bu o'z samarasini berganini amalda kurib turibmiz.

Xalqaro tajribada bu kabi profilaktik vositalardan biri korrupsiyaga qarshi muvofiqlik "komplaens-nazorat" tizimi deb nom oladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, uni oldini olish, davlat va jamiyatning barcha soxalarida korrupsiyaviy omillarga chek quyishga qaratilgan isloxotlar jadal olib borilayotgani bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonga asosan barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bolgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy (compliance control) nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etildi.

Korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimi davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, banklar va hususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta'minlovchi, korrupsiya xavf xatarlari va manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash hamda ularga chek quyish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o'zida mujassam etgan samarali tizimdir.

Xalqaro iqtisodiyotga korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishi oqibatida yetkazilayotgan zararning tobora ortib borayotgani natijasida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasini yanada keng tadbik etilishi, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Korrupsiyaga qarshi komplaens-nazorat tizimi asosiy maqsadi tashkilotda, shuningdek, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida (bundan buyon matnda tashkilot tizimi deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, hususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishiining oldini olish, tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, tashkilot tizimida korrupsiyaga

qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

Tashkil qilingan yig'ilishda "O'zmilliybank" AJ Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi U.Davlanov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga (26.12.2025y) Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlari hamda bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga chek qoyich borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham kelgisidagi vazifalar to'g'risida so'z yuritdi.

Barchamizga ma'lumki 2025-yil 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi bo'lib o'tdi. Hurmatli Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar qatorida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishlni tubdan isloh qilish yo'nalishlarida ham alohida to'xtalib o'tdi.

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohatlari:

- Korrupsiyaga yo'l qo'yish – islohotlarga xiyonat deb belgilandi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilindi;
- Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etilishi ta'kidlandi;
- Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul o'rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu rahbarlar tizimdagi nopok shaxslarni aniqlash, shuningdek, byudjet mablag'i talon-toroj bo'lishi va mansabni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatadi va Prezident oldida hisobot beradi;
- "Lavozimim va unvonim bor, menga hech kim tegmaydi" deb hisoblagan shaxslar yanglishayotganini, qonun oldida barcha teng ekani alohida ta'kidlandi. Ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, bank, yirik davlat kompaniyalari, vazirlik va hokimliklar, bir so'z bilan aytganda, birorta idora va tashkilot nazoratdan chetda qolmaydi;
- Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli ekotizim yaratamiz. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimini rivojlantiramiz kerakligi takidlandi;
- Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi;
- Komplayens xizmatining faoliyatiga to'sqinlik qilganlar – korrupsiyaga

sherik, deb baholanadi va javobgarlik shunga mos holda bo'ladi;

- Prezident Administratsiyasi Komplayens xizmati bu tizimni 1 yanvardan boshlab barcha davlat idoralari va tashkilotlarida ishga tushirib, jilovni mahkam qo'lga olishi ta'kidlandi;

- Mansabidan qat'i nazar, poraxo'rlik va suiiste'molchilik bo'yicha har bir holat yuzasidan Prezident Administratsiyasi Komplayens xizmati shaxsan Prezidentga axborot kiritib borishi buyurildi;

Shundan keyin yig'ilishni "O'zmilliybank" AJ Xorazm viloyati Bosh boshqarmsi Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i R.Iskandarov davom qildirib, hozirgi vaqtda fuqarolar orasida keng tarqalgan azart va tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o'yinlarining nojuya oqibatlari haqida xodimlarga tushuntirishlar berib o'tdi.

QAROR QILADI:

1. "O'zmilliybank" AJ Xorazm viloyati Bosh boshqarmasi Xazarasp BXM boshqaruvchisi U.Nazarov ma'ruzasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga (26.12.2025y) Murojaatnomasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlari yil davomida har bir yig'ilishda, o'quv seminarlarida xodimlarga yetkazilib borilsin va fuqarolar, bank mizjozlari bilan uchrashuvlarda ham keng qamrovda targ'ib qilib borilsin.

Yig'ilish kotibi: S.Matchanova

“O’zmilliybank” AJ Xorazm viloyat Bosh boshqarmasi Xazarasp BXM 2026-yil 27-mart kuni o’tkazilgan yig’ilish bayoni bilan tanishgan xodimlar ro’yxati.

T/r	Familya, ismi	Lavozimi	Imzosi
1.	Olimov Xurshidbek	Bosh mutaxassisi	
2.	Abdullayev Xurshandbek	Bosh mutaxassis	
3.	Matkarimov Sarvarbek	1-sonli mutaxassis	
4.	Ibraimov Asqar	Yangiliq nazorat	
5.	Mashorepova Risolat	Bosh mijoz menejeri	
6.	Rozibojev Quvonch	Bosh mutaxassis	
7.	Sharipov Shuxrat	Bosh yuruvchi tajribaxo'j	
8.	Xolmurotov Shoxrux	Yetakchi mutaxassisi	
9.	Iskandarov Husniddin	Bosh buhgalter	
10.	Sharipov Sardorbek	Yetakchi mutaxassis	
11.	Raxmatullayev Shohzod	yetakchi mutaxassisi	
12.	Daisletov Sardorbek	Bolim boshlig'i	
13.	Qurbanov Axtiyor	Bosh mutaxassis	
14.	Mashoripova Dinora	Kassir	
15.	Ortiqov Farruxbek	Kassir	
16.	Ibragimova Raykan	Kassir	
17.	Matkarazarova Nilufar	Kassir	
18.	Yusupboyev Dilolbek	Bosh mutaxassis	
19.	Temirniyazova Gulsora	Kassir	
20.	Otajanova Nilufar	Kassa mudiri	
21.	Kurbanov Murod	Bosh mutaxassisi	
22.	Utarbayeva Saodat	Yetakchi mutaxassisi	
23.			
24.			
25.			
26.			
27.			
28.			
29.			
30.			
31.			
32.			
33.			
34.			
35.			